2034-yilgacha neft-kimyo mahsulotlari jahon bozori hajmi $1 trln ga yetishi mumkin

// 29 July 2025 yil
https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/2034-yilgacha-neft-kimyo-mahsulotlari-jahon-bozori-hajmi-1-t



2024-yilda neft-kimyo mahsulotlarining jahon bozori hajmi $541 milliardni tashkil qildi.

2034-yilga kelib, ushbu ko‘rsatkich o‘rtacha yillik 6,7% o‘sish sur’ati bilan $1036 milliardga yetishi mumkin. Bunday ma’lumotlarni Expert Market Research (EMR) agentligi o‘zining so‘nggi hisobotida keltirgan.

Hududiy yetakchi sifatida Osiyo-Tinch okeani mintaqasi ajralib turadi. Mintaqa katta ishlab chiqarish bazasi va Xitoy hamda Hindiston kabi tez rivojlanayotgan iqtisodlarga ega bo‘lgani tufayli eng katta ulushga ega.

Keyingi o‘rinlarda Shimoliy Amerika va Yevropa turadi, unda yuqori sifatli neft-kimyo mahsulotlari hamda barqaror ishlab chiqarish texnologiyalariga investitsiyalar yo‘naltirilmoqda. Hisobotga ko‘ra, qadoqlashda, elektronika, maishiy buyumlar va avtokomponentlarda plastikning keng qo‘llanilishi butun dunyo bo‘ylab talabning asosiy drayveri bo‘lib qolmoqda.

Yengil plastiklardan foydalanishning ortishi, ayniqsa polipropilen va polietilen mahsulotlariga bo‘lgan talabni sezilarli darajada oshirmoqda.

Avtomobilsozlik, to‘qimachilik sanoati, farmatsevtika va qishloq xo‘jaligi kabi asosiy tarmoqlar ham zarur materiallarni — sintetik tolalar, smolalar, qatlamlar va o‘g‘itlarni ishlab chiqarishda bu mahsulotlarga

tobora ko‘proq tayanayotgani qayd etilgan.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati